

**Farg'ona viloyati XTXQTMOI ijtimoiy –
iqtisodiy fanlar kafedra mudiri , iqtisod
fanlari nomzodi, dotsent Haydarov
Xoshimjon Urinbayevichning “Yalpi
daromad ”mavzusida
tayyorlagan**

DARS ISHLANMASI

Farg'ona 2015

TAQRIZ

Ushbu dars ishlanma “Dars muqaddas” asosida ilg’or pedagogik texnologiyalar “Aqliy xujum”, “Amaliy ish”, “Klaster” interfaol usullardan foydalangan holda 9- sinf Iqtisodiy bilim asoslari fani “yalpi daromad” mavzusida yaratilgan.

Ushbu dars ishlanma o’quvchilarning mavzuni qiyinchiliksiz o’zlashtirishlarida o’z samarasini beradi.

Mavzuni o’rganish davomida o’quvchilarning mustaqil fikrlashlari, nutq madaniyatining shakllanishiga, matematik salohiyatlarini oshirishlariga yordam beradi.

Guruhlarda mashqlar ishlash orqali o’quvchilarning faolliklari oshadi. Mavzuni yoritishda darslik bilan qo’shimcha prezident ma’ruzalaridan, “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O’zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo’llari.

I.Karimov. asaridan va internet ma’lumotlaridan keng foydalanilgan.

Taqrizchi:

Farg’ona Davlat Universiteti nazariyasi kafedrasi professori iqtisod fanlari

doktori A.G’ofurov

ijtimoiy-iqtisodiy fanlar

kafedras

i mudiri, iqtisod fanlari nomzodi

Xaydarov Xoshimjon Urinbaevichning. 9-sinflarda

“ Yalpi daromad” mavzusida yozilgan dars ishlanmasi FVXTXQTMOI

Ijtimoiy-fanlar kafedrasini yig’ilishida muhokama qilindi.

Sana:

Vaqt:45 daqiqa

Mavzu:Yalpi daromad

II. Darsning maqsadi:

A) Ta'limiy: daromad va uning turlari, foyda , zarar, sof foyda, foydaning ahamiyati va uni ko'paytirish yo'llari haqida ma'lumot berish .

B) Tarbiyaviy: Vatanga muhabbat his tuyg'usini shakllantirib borish,

S) Rivojlantiruvchi: o'quvchilarda mustaqil fikrlarni ayta olish hususiyatini rivojlantirish, o'quvchilarga formulalar yordamida yalpi daromad va foydani topishni o'rgatish haqidagi fikrlarini kengaytirish.

IV. Darsning turi: Yangi bilim va tushunchalarni shakllantiruvchi

V. Darsning usuli:interfaol ,maruza.klaster va amaliy ish .

VI. Darsning jihosi: tarqatma materiallar, test savollari, video, proektor.

VII. Tashkiliy qisim: A) navbatchining axboroti

B) siyosiy daqiqa

S) O'quvchilarning guruhlarga daromad turlari bo'yicha

bo'lish: ish haqi, dividend, renta, depozit

VIII. O'tgan mavzuni so'rash, baholash , mustahkamlash.

Reja:

1.Yalpi daromad.

2.Foyda

3..Foydaning ahamiyati va uni ko'paytirish usullari.

Korxonaning yoki biror shaxsning ma'lum vaqt davomida Tovar va xizmatlarni sotishdan qo'lga kiritgan ja'mi pul tushumi-yalpi daromad deb yuritiladi va TR(Total revenue-yalpi daromad iborasining bosh harflari) harflari bilan belgilanadi.Agar sotilgan Tovar miqdori (q) va bitta tovarning o'rtacha sotuv narxi (p) ma'lum bo'lsa, yalpi daromad quyidagicha topiladi:

YALPI DAROMAD=TOVARNING O'RTACHA SOTUV NARXI*SOTILGAN TOVAR MIQDORI

FORMULA

$$TR=P*Q$$

FOYDA-korxonaning ma'lum vaqt davomidagi yalpi daromadi bilan umumiy harajatlari orasidagi farq bo'lib, P harfi(inglizcha “profit” (foyda) so'zining bosh harfi bilan) belgilanadi. Agar bu ayirma manfiy bo'lsa, u holda foyda emas, zarar haqida gapiriladi.

FOYDA=YALPI DAROMAD-UMUMIY HARAJAT

FORMULA

$$P=TR-TC$$

Yalpi daromad: tovarni sotishdan va xizmatdan ko'rsatishdan tushgan ja'mi pul tushumi.

Foyda: korxonaning ma'lum vaqt davomidagi yalpi daromadi bilan umumiy harajatlari orasidagi musbat farq.

Bozor iqtisodiyoti sharoiti sharoitida foyda firma faoliyatini baholovchi va o'lchovchi muhim iqtisodiy ko'rsatkich hisoblanadi. Tadbirkorlik bilan

shug'ullanishning asosiy maqsadlaridan biri bu- foyda olish ekanligini eslatishning o'zi kifoya.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida nima ko'proq foyda keltirsa shu narsa ko'proq ishlab chiqariladi va aksincha. Iqtisodchilar biror sohani rivojlantirishda mablag' sarflashni investitsiya qilish yoki sarmoyalash deb atashadi.

Investitsiya qilish(Sarmoyalash)- mablag'ni ishlab chiqarishni rivojlantirishga sarflash.

O'quvchilarga mavzuda berilgan bilimlarni mustahkamlash uchun amaliy ish bajariladi.

Mashq

Firma hafta davomida 2000 dona mahsulotining 25 % ini 100 so'mdan , 45 % ini 120 so'mdan, qolganini esa 900 so'mdan sotdi. Firmaning bu haftadagi daromadi qanchani tashkil qildi? Firma har bir tovarni o'rtacha necha so'mdan sotgan?

Firma bu haftada 560 000 so'm foyda olgan bo'lsa , uning bir haftalik umumiy harajatlari necha so'mni tashkil qilgan? Firmaning bir dona Tovar uchun sarflangan o'rtacha sarf-xarajati necha so'mni tashkil qilgan?

Echish:

1. $q=2000$

$2000-100\%$

$\times 25\%$

2. $2000-100\%$

$x- 45\%$

$2000 \quad 100\%$

$\times 30\%$

3 . $500 \cdot 100=50\,000$

$900 \cdot 120=108\,000$

$600 \cdot 90=54000$

$50\,000+108\,000=212000$

$$TC=212000-56000=156000$$

$$AC=TC/q$$

$$156000/2000=78$$

Guruhlarda ishlash : guruhlarga ishlash uchun mashqlar beriladi

Darsni mustahkamlash: guruhlarga test kartochkalarini tarqatiladi, javoblar tinglanadi, va bir – birlarining javoblari to'ldiriladi, o'qituvchi tomonidan hulosalar beriladi va darsga yakun yasaladi .

Baholash: darsda faol qatnashgan o'quvchilar baholanadi.

Uyga vazifa: Mavzuni o'qib, o'rganish ,“Buni yodda tuting bandini ” yod olish